4-SINF O‘QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA BADIIY MATN USTIDA ISHLASH IMKONIYATLARI

Misirova Nodira Tovbayevna
Guliston davlat pedagogika instituti
pedagogika fanlar bo‘yicha
falsafa doktori (PhD)v.b. dotsent
Xusanova Zebo Xusan qizi,
Qurbonaliyeva Madina Abduhakim qizi
Guliston davlat pedagogika instituti
“Boshlang‘ich ta’lim” yo‘nalishi 3-bosqich talabalari

Annotatsiya: ushbu tezisda 4-sinf o‘qish savodxonligi darslarida badiiy matn ustida ishlashning imkoniyatlari yoritib berilgan. Badiiy matn ustida ishlash orqali o‘quvchilarda mehnatsevarlik, kitobxonlik, saxiylik, insoniylik fazilatlari shakllanadi. Adabiyotga bo‘lgan qiziqishini oshiradi, dunyoqarashini kengaytiradi.

Kalit so‘zlar: boshlang‘ich ta’lim, adabiyot, badiiy asar, nutq san’ati, kitobxonlik, mehnatsevarlik, insoniylik, mantiqli xulosa chiqarish.

Abstract: this thesis describes the possibilities of working on literary texts in the 4th grade reading literacy classes. By working on the literary text, hard work, reading, generosity, and human qualities are formed in students. It increases his interest in literature and expands his worldview.

Key words: primary education, literature, artistic work, art of speech, reading, hard work, humanity, making logical conclusions.

Kirish. Dunyodagi har bir insonning Vatan tuyg‘usi bilan yashashi, kindik qoni to‘kilib o‘sgan makonini seva olishi va ardoqlashi, yurt tinchligi, el farovonligi uchun o‘z hissasini qo‘sha olishi dunyodagi eng yaxshi tuyg‘ulardan biri hisoblanadi.1991-yilda davlat mustaqilligining e’lon qilinishi o‘zbek xalqining qaddini rostlab, insonlar uchun imkoniyat eshiklarini ochdi. Vatanga bo‘lgan ishonchi va mehr-muhabbatini yanada orttirib, sobiq ittifoq davrida zo‘ravonlik yo‘li bilan yo‘q qilingan dinimizni, milliy an’ana va qadriyatlarimizni, urf-odat hamda marosimlarimizni yana xalqimiz hayotiga qaytardi.

Muhtaram yurtboshimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev sharofati bilan mana shunday o‘zgarishlar ta’lim sohasini ham chetlab o‘tmadi. Ta’lim sohasiga katta e’tibor qaratilib, ta’lim sifatini va samaradorligini yanada oshirish maaqsadida ta’limga oid prezident farmonlari, qonunlar va islohotlar hayotga tadbiq etildi. Mana shunday huquqiy hujjatlardan biri “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonun bo‘lib, bu huquqiy hujjat O‘zbekiston Respublikasi Qonunchilik palatasi tomonidan 2020-yil 19-mayda qabul qilinib, 2020-yil 7-avgustda senat tomonidan ma’qullangan. 2020-yil 24-sentabr kunidan boshlab kuchga kirdi. “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonun O‘zbekiston hududida yashab, ta’lim oluvchi shaxslarning ta’lim olish haqidagi huquq va majburiyatlarini belgilab beruvchi asosiy hujjatlardan biri hisoblanadi. Uning 5-moddasida ta’lim olish huquqi haqida shunday deyiladi:”Jinsi, irqi, millati, tili, dini, e’tiqodi, ijtimoiy kelib chiqishi, ijtimoiy mavqeyidan qat’iy nazar, har kimga ta’lim olish uchun teng huquqlar kafolatlanadi”. Umumiy o‘rta ta’lim poydevori bo‘lmish boshlang‘ich ta’lim ta’lim oluvchilarda umumiy o‘rta ta’limni davom ettirish uchun zarur bo‘lgan savodxonlik, bilim, malaka va ko‘nikmalar asoslarini shakllantirishga qaratilgan bo‘lishi kerakligi ta’kidlanadi.

Kishilik jamiyatining rivojlanib borishi insonlar ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy hayotida katta o‘zgarishlarga sabab bo‘ldi. Kishilik jamiyatining rivojlanishi bilan bir qatorda insonlarning nutqi ham yanada rivojlanib sayqallandi. Buning natijasida notiqlik san’ati shakllanib, insonlar nutqi yangi bosqichga ko‘tarildi. Endilikda nutq faqat fikrni ifodalovchi, aloqa almashinuvi vositasi sifatidagina namoyon bo‘lmay, inson salohiyati va saviyasini belgilab beruvchi omil sifatida ham qaraladigan bo‘ldi. Buning natijasida esa notiqlik san’ati vujudga keldi. Bugungi kunda ham notiqlik san’atiga katta e’tibor qaratilmoqda. Inson nutqi qanchalar ravon va go‘zal bo‘lsa, u inson dunyoqarashi va salohiyati ham shunchalar baland deya e’tirof etila boshlandi. Shuning uchun ham hozirgi kunda shaxs nutqini o‘stirishga alohida e’tibor qaratilib kelinmoqda. Shaxs nutqini rivojlantirish boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilari va o‘quvchilari oldiga qo‘yilayotgan muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining nutqini o‘stirishda badiiy asarlarning o‘rni katta va beqiyosdir. Badiiy asarlar o‘quvchilarda ongli o‘qish, uqqanlarini tushunarli qilib so‘zlab berish, o‘z fikrini bildira olish kabi jihatlarini shakllantirib beradi. O‘quvchilar badiiy asar bilan tanishib, uni va undagi qahramonlarni tahlil qilar ekan, undagi har bir obraz o‘rniga o‘zini qo‘yib, bu qahramon o‘rnida bo‘lganida u nima qilishi mumkinligini, qaysi yo‘l to‘g‘ri-yu, yana qay biri xato ekanligini tushunib yetadi. Asar qahramonlari hayotidan kerakli xulosa va saboqni oladi. Hayotni yanada yaxshiroq anglab yetadi. Badiiy asarni o‘qish bilan bir qatorda undagi notanish so‘zlarni ham ko‘rib, lug‘at ustida ishlaydi, so‘zlarning yozilishiga e’tibor berib, imloviy xatolarini ham to‘g‘irlab ketadi. Shu boisdan ham boshlang‘ich sinf o‘qish savodxonligi fanlarida badiiy asarlar(hikoyalar, rivoyatlar, ertaklar va qissalar) soni ko‘paytirilmoqda. Ayniqsa 4-sinf o‘qish savodxonligi kitobida berilgan badiiy asarlar o‘quvchilarni mantiqiy fikrlashga undaydi. Asar matnini tahlil qilish orqali shoir va yozuvchilarning fikrini, hissiyot va kechinmalarini anglab yetishiga ko‘maklashadi. Mana shunday asarlardan biri sifatida 4-sinf o‘qish savodxonligi kitobida keltirilgan “Marvarid” hikoyasini keltirishimiz mumkin. Ushbu hikoya dengiz bo‘yida yashovchi bolalarning birgalikda o‘ynayotganidan boshlanadi. Oddiy oila farzandi bo‘lgan Josh dengizga sho‘ng‘iyotgan bir paytda marvarid topib oladi. Bolalar bu marvaridni ko‘rib hayratlanishadi. Ayniqsa Ruben ismli bola marvaridga juda qiziqib, uni ushlab ko‘rish uchun Joshdan ruxsat so‘raydi. Josh Rubenning marvaridga bo‘lgan qiziqishini ko‘rib, marvaridni unga beradi. Ruben marvaridga shu qadar qiziqib qoladiki, hatto uyidan tashqariga chiqmasdan marvarid haqidagi barcha ma’lumotlarni o‘rganish bilan mashg‘ul bo‘ladi. U dengiz chig‘anoqlari ichida marvaridlar qanday hosil bo‘lishini bilib oladi. Ruben marvaridlarga shu qadar qiziqadiki, hattoki uyidagilari uning tug‘ilgan kuniga qanday sovg‘a olishini so‘raganida ularga doimo marvaridlari bo‘lishini xohlashini aytadi. Katta bo‘lganida marvarid savdosi bilan shug‘ullanuvchi tadbirkor bo‘lmoqchiligi haqida so‘zlaydi. Kun kelib, haqiqattan ham shunday bo‘ldi. Ruben do‘stlari bilan xayrlashib, bolaligi o‘tgan uyini, dengiz yaqinidagi ona shahrini tark etib, marvarid savdolari bo‘ladigan katta shaharga jo‘nab ketadi. O‘zidagi marvaridlarini katta, bejirim marvaridlarga almashtiradi. U ko‘plab joylarga marvaridlarni topish uchun sayohatlar qiladi. Vaqtlar o‘tib, u badavlat odamga aylanadi. Biroq Ruben o‘zini baxtli his etmaydi. U o‘z qishlog‘ini, bolaligi o‘tgan uyini va do‘stlarini sog‘ina boshlaydi. Oradan vaqtlar o‘tib, bolalikdagi do‘sti Joshni uchratadi va unga boy bo‘lsada baxtli emasligini aytib, undan bolalikda qilgan saxiyligi evaziga nima hadya qilishi mumkinligini so‘raydi. Biroq Josh unga hech narsa keremasligini va unga oddiy hayot yoqishini aytadi. Ruben hayotidan baxtli emasligini aytanida unga borini boshqalar bilan baham ko‘rib yashash lozimligini hamda hamma o‘z hayotidan mamnun va baxtli yashashi kerakligini uqtirdi. Ruben esa bundan o‘ziga kerakli xulosani oladi. Ushbu hikoya o‘quvchilarning dunyoqarashini kengaytirishga, ularni mantiqiy fikrlashga hamda nutqini o‘stirishga xizmat qiladi. Hikoyada berilgan savollar o‘quvchilarni fikrlashga undaydi, adabiyotga bo‘lgan qiziqishini oshiradi, so‘z boyligini boyitadi. Ularga boylik, pul, mol-u davlat har doim ham baxt olib kelmasligini, baxt oddiylikda ekanligini, ota-onamiz va yaqin do‘stlarimiz borligida ekanligini uqtiradi. Ushbu hikoya o‘quvchilarda rejali bo‘lish kerakligini o‘rgatib, mehnatsevarlik, xushmuomalalik, saxiylik kabi fazilatlarini shakllantirishga xizmat qiladi. Nafaqat bu hikoya balki

4-sinf o‘qish kitobida berilgan barcha badiiy asarlar o‘quvchilarda yuqoridagi fazilatlarni shakllantirishga xizmat qilib, badiiy asarlarga bo‘lgan qiziqishini oshiradi.

Xulosa. Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, 4-sinf o‘qish savodxonligi darslarida badiiy matn ustida ishlash eng samarali usullardan biridir. Badiiy matn ustida ishlash o‘quvchilarda mehnatsevarlik, kitobxonlik, saxiylik kabi fazilarlarni shakllantiradi. Ularning nutqini o‘stirib, dunyoqarashini kengaytiradi, so‘z boyligini oshirib, adabiyotga bo‘lgan qiziqishini oshiradi, hayotga teran ko‘z bilan boqishga da’vat etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Haydarov A. Ijodiy ishlab chiqarish faoliyatini rejalashtirish. Tashkil etish va boshqarish. A Haydarov. Ijodiy ishlab chiqarish faoliyatini rejalashtirish, tashkil etish va boshqarish fanidan o‘quv qo‘llanma, 2023.

2. Haydarov. A Madaniyat va san’at sohasini boshqarish asoslari [Matn]: o‘quv qo‘llanma. A. Haydarov. - T.:«Kamalak» nashriyoti, 2019.

3. F. E. Ahmedov. Ommaviy tadbir va bayramlar rejissurasi va aktyorlik mahorati. Cho‘lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent - 2021.

4. U.X.Qoraboyev “Badiiy ommaviy tadbirlar” kitobi .